

Maqola nomi: Bozorlashayotgan hayot: post-Sovet O'zbekistonda ijtimoiy reproduksiya nazariyasi va patriarxat rejimlarini ayollar mehnati bilan chambarchas bog'liqligi

Asl maqola nomi: The marketisation of life: entangling social reproduction theory and regimes of patriarchy through women's work in post-Soviet Uzbekistan

Muallif: Lorena Lombardozi

Manba: Review of International Political Economy, 29:6, 1870-1893, DOI: 10.1080/09692290.2021.1910063

Nashriyot: Informa UK Limited, trading as Taylor & Francis Group

Doimiy havola: <https://doi.org/10.1080/09692290.2021.1910063>

Mazkur maqola Lorena Lombardozi ruxsati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O'zbekistonda gender zo'ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o'zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Nodira Ibrohimova

Tarjima sanasi: 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning O'zbekistondagi Elchixonasi ko'magida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o'qish, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko'rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko'rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Bozorlashayotgan hayot: post-Sovet O'zbekistonda ijtimoiy reproduksiya nazariyasi va patriarxat rejimlarini ayollar mehnati bilan chambarchas bog'liqligi

Lorena Lombardozi
Open universitet, Buyuk Britaniya

ANNOTATSIYA

Janubiy global hududda ayollarga neoliberal bozorlashuv ta'siri haqida xalqaro siyosiy iqtisodiyot (IPE) sohasidagi muhim ilmiy tadqiqotlarga qaramay, reproduktiv va norasmiy mehnat bilan bog'liq masalalar ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Shuningdek, uning ko'p darajali patriarxat shakllari bilan o'zaro ta'siri ham kam o'rganilgan. Ushbu maqola ijtimoiy reproduksiya nazariyasi va gender rejimlarining turfa shakllarini birlashtiruvchi nazariy asosni ishlab chiqib, O'zbekistondagi agrar bozorlashuv jarayonlarida ayollarning bozor va nobozor bosimlari ichida qanday harakatlanishini tahlil qiladi.

Maqolada "maishiy" va "ommaviy" patriarxat tushunchasi asosida oziq-ovqat ishlab chiqarish va reproduksiyaning genderlashgan amaliyotlari tahlil qilinib, ayollar mehnatining kundalik hayotda xonadon va davlat tomonidan qanday tarzda ekspropriatsiya va ekspluatatsiya qilinayotgani ochib beriladi. Shu orqali, bozorlashuv natijasida ayollarning jamiyatdagi mavqei nega yaxshilanmagani izohlanadi.

Ushbu maqola feministik xalqaro siyosiy iqtisodiyotga ikki jihatdan hissa qo'shadi. Birinchidan, ikki turli gender nazariyalarini uyg'unlashtirish orqali institusional va madaniy ma'nolar bilan ayollar mehnatining iqtisodiy "qadrlanishi" o'rtasidagi bog'lanishni ochib beradi. Ikkinchidan, u Janubiy global hududda neoliberal rivojlanish boshqaruvi tomonidan taklif etilgan siyosiy yechimlarning zaif tomonlarini tahlil qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Mehnat; ijtimoiy reproduksiya nazariyasi; IPE; patriarxat; bozorlashuv; O'zbekiston

KIRISH

Feministik xalqaro siyosiy iqtisodiyot (IPE) adabiyotida neoliberal (kapitalistik) rivojlanishning ayollarning haq to'lanadigan mehnatiga ko'rsatgan bahsli ta'siri keng ko'lamda tahlil qilingan (Elson, 2002; Elson & Pearson, 1981; Kabeer, 2003; Razavi, 2009). Ayollarning huquqiy va ijtimoiy kuchayishi g'oyasi qanday zaif asoslarga qurilgani hamda "gender meynstriming" siyosatlarining cheklanganligi ochib berilgan holda, bozorlashuv jarayonlarida mehnat taqsimotida ayollar ishtirokining ortishi qanday ekspluatatsiyaviy namuna va tendensiyalarni keltirib chiqargani namoyon qilindi. Bu jarayon "mehnatning feminizatsiyasi" deb ataladi (Barrientos, 2019; Seguino, 2010; Standing, 1999). Hayotning bozorlashuvi haq to'lanadigan ishni tobora zaruratga aylantirdi; ammo yaratilgan ish turlari va maosh tizimlari gender belgilarga ko'ra keskin farqlangan va nomutanosib bo'lgan (Cousins et al., 2018:1064). Hindiston (Agarwal, 2016; Mezzadri, 2016, 2019), Janubiy Afrika (Barrientos et al., 2016) va Janubiy global hududning boshqa mintaqalarida (Arslan, 2020; Kabeer, 2012; O'Laughlin, 2013; Seguino, 1997) olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, haq to'lanadigan ish ayollarga ko'pincha barqaror daromad, nafaqa va boshqa ijtimoiy himoya mexanizmlari orqali yuqori ijtimoiy mavqe bergan bo'lsa-da (Kabeer, 2012; Karshenas et al., 2014), mehnat bozorida ayollarning yangi talab asosidagi integratsiyasi avtomatik ravishda ularning ozodligiga olib kelmagan (Barrientos et al., 2016). Bu tadqiqotlar tarixiy voqealar, mahalliy sharoitlar, ijtimoiy normalar va xonadon ichidagi munosabatlar uyg'unligida ayollarning haq to'lanadigan mehnatda ishtirok etishini belgilaydigan omillar turlicha natijalar berajagini ko'rsatib berdi. Bu natijalar bozorlashuv (yoki tovarlashuv) jarayonida birgalikda shakllanadi (Katz, 2001; Kabeer, 2013). Biroq, bu mualliflar parvarish va g'amxo'rlik masalasiga murojaat qilgan bo'lsalar-da, ijtimoiy reproduksiyaning (SR) ahamiyati – ya'ni mehnat kuchini ishlab chiqarish jarayoni bilan (Ferguson et al., 2016; Kunz, 2010) kapitalizm uchun qiymat yaratish (hayotni saqlab qolish) jarayonlari o'rtasidagi munosabat hamda ularning reproduktiv mehnat, patriarxal institutlar va normalar shakllari bilan bog'liq jihatlari – har doim ham ochiq bayon qilinmagan. Shu sababli, mazkur maqola ijtimoiy reproduksiya nazariyasi va patriarxatning turli gender rejimlari nazariyalarini uyg'unlashtirgan asosni ishlab chiqadi. Bu asos mehnat tovar kuchi har kunlik hayotda bozordan tashqari institutlar, munosabatlar va jarayonlar orqali qanday qayta ishlab chiqarilishi va saqlanib turilishini anglashga xizmat qiladi. Patriarxatni keng ma'noda "ayollarni erkaklar hukmronligi, zulmi va ekspluatatsiyasiga asoslangan ijtimoiy tuzilmalar va amaliyotlar tizimi" sifatida tushunib (Walby [1], 1990:214), "maishiy patriarxat" va "ommaviy patriarxat" tushunchalarini O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarish va reproduksiyaning genderlashgan amaliyotlarini tahlil qilish uchun qo'llayman. Shu tariqa, ayollar mehnatining oila va davlat tomonidan amalga oshiriladigan ekspropriatsiya, zulm va ekspluatatsiya shakllari ochib beriladi. Ayollarning reproduktiv mehnatda qay tarzda, nega va qaysi

patriarxal rejimlarda ishtirok etishi ko'pincha tashqi omil sifatida qaraladi va uni ish va hayotning xalqaro, makro, mezo va mikro darajalarda aniqlanib tashkil etiluvchi organik tizimning bir qismi sifatida anglab yetilmaydi. Shu asosda, maqola "kundalik hayot siyosiy iqtisodiyoti"ga murojaat qilib, ayollar O'zbekistondagi agrar bozorlashuv jarayonlarida bozor va nobozor bosimlari bilan qanday kurashishi va qarshi turishini ham tadqiq qiladi. O'zbekistonda ayollar asosiy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar va oziq-ovqat ta'minotida muhim ishtirokchilar hisoblanadi (Agarwal, 2016:311). Shu bilan birga, ular rasmiy yoki norasmiy tarzda oziq-ovqat tijorati bilan ham shug'ullanadilar. Mening fikrimcha, ayollar har doim ekspropriatsiya qilingan, ammo bozorlashuv jarayonlari ko'p darajali va vaqtga xos patriarxal dinamikalar ta'sirida ularning ekspropriatsiya shakllarini o'zgartirdi. Bu o'zgarishlarni ijtimoiy reproduksiya nazariyasi orqali ochib berish mumkin. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola bozor tovarlari aylanmasi doirasidan tashqarida oziq-ovqat qanday ishlab chiqariladi, iste'mol qilinadi va taqsimlanishini gender nuqtai nazaridan muhokama etib, bozorlashuv va ijtimoiy reproduksiya o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash uchun muhim nazariy linza taklif etadi. Maqola quyidagicha tuzilgan: 2-qismda patriarxat va ijtimoiy reproduksiya mavzusidagi adabiyotlar tahlil qilinib, agrar bozorlashuv tahlilida gender nuqtai nazardan yondashiladi. 3-qismda metodologiya ochib beriladi. 4-qismda ayollarning bozorlashuv jarayonidagi mavqei muhokama qilinadi. 5-qismda O'zbekistonda ishlab chiqarish va reproduksiya bo'yicha empirik dalillar tahlil etiladi. 6-qismda esa agrar bozorlashuv jarayonlarida ijtimoiy reproduksiyaning tuzilmaviy muammolarini hal qilish uchun neoliberal boshqaruv tomonidan taklif etilgan siyosiy yechimlarning yetarlimasligi muhokama qilinadi.

Agrar bozorlashuv, patriarxat va ijtimoiy reproduksiya

Rivojlanish tashkilotlari bozorlashuvni iqtisodiy rivojlanish va gender tengligiga xizmat qiladi, deb baholaganlari uchun tavsiya qilgan bo'lsalar-da (Duflo, 2012; WB, 2012), amalda u ko'pincha ayollarning moddiy sharoitlarining yomonlashishiga olib kelgan. Aslida, bozorlashuv ijtimoiy reproduksiya faoliyatlarining tobora tovarlashuvi bilan uyg'un keladi, bu esa ayollar uchun vaqt va pul bo'yicha yangi bosimlarni vujudga keltiradi (Cousins et al., 2018). Bozorlashuv [2] – ijtimoiy reproduksiya uchun zarur bo'lgan mehnat vaqtdan kapital to'planishi uchun ortiqcha mehnat vaqtiga o'tish orqali mehnat qiymatini hukmronlik va ekspropriatsiyaga asoslangan ishlab chiqarish usuliga o'tishning tuzilmaviy bosqichini anglatadi (Bhattacharya, 2017). Qishloq hududlarida bozorlashuv mehnat ixtisoslashuvi, mehnatning (Arun, 2012; Razavi, 2003, 2009) va tabiatning (masalan, yer yoki oziq-ovqat) tovarlashuvi hamda pullashuv jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunday jarayon tirikchilik vositalari – yer va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi resurslarga kirish imkoniyatini o'zgartirib, mehnat vaqtini shakllantiradi va shu orqali jinsiy farqlarga asoslangan to'planish va

ekspluatatsiya dinamikasini yaratadi. Agrar o'zgarish resurslar uchun to'planish kurashini yuzaga keltiradi, bu esa xonadon ichidagi munosabatlar yoki mulk taqsimotini qaytadan shakllantirishi mumkin. Natijada bu jarayon oila boshlig'i mavqeiga ta'sir qilib, erkaklar va ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin (Cousins et al., 2018; Kabeer, 2013; Razavi, 2009).

Biroq bozorlashuv gender asosidagi ekspropriatsiyani o'ziga xos holda yarata olmaydi. Ommaviy institutlar va mahalliy ijtimoiy normalar ijtimoiy reproduksiya doiralarini shakllantiradigan ekspluatatsiya va zulm qonuniyatlarini kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Masalan, davlat – siyosiy rahbariyat va iqtisodiy kuchda erkaklar hukmronligi tufayli – ishlab chiqarish va reproduksiya munosabatlari qay tarzda bir-biri bilan bog'lanishi va tashkil etilishini patriarxal moyillik orqali belgilab turadi (Pearson, 2014). Bu jarayon masalan, reproduktiv mehnatning qaysi sharoitlarda subsidiyalanishi (Kunz, 2010; LeBaron, 2010) yoki yerning qayta xususiyashtirish va yopilish jarayonlari orqali individuallashtirilishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, mulk bilan bog'liq ijtimoiy siyosatlar va huquqiy tizimlar ayollarning ishlab chiqarish va reproduksiya munosabatlaridagi mavqeiga kuchli ta'sir qiladi. Ijtimoiy reproduksiya nazariyasi kapitalistik ijtimoiy munosabatlarda (va ularga bog'liq to'planish jarayonlarida) ayollar va erkaklar tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish, norasmiy va reproduktiv mehnat munosabatlari o'rtasidagi moddiy ekspluatatsiya mexanizmlari va dialektik uyg'unlikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Biroq u agrar o'zgarish jarayonlarida ijtimoiy reproduksiya natijalarini belgilaydigan vaqt va makonga xos institusional doiralar va tuzilmalarni (tepadan-pastga yoki pastdan-tepaga) har doim ham ochib bermaydi.

Aksincha, gender rejimlari nazariyasi patriarxatning ko'p qirrali shakllarini ochib berishga yordam beradi, chunki u aniq makon va zamonda shakllangan erkaklar hukmronligiga asoslangan chiqaruvchi institusional tuzilmalar va normalarning genderga xos zulm qonuniyatlarini anglash imkonini yaratadi. Biroq ijtimoiy reproduksiya nazariyasidan farqli ravishda, gender rejimlari nazariyasi mehnat munosabatlaridagi ekspluatatsiya va kapital ekspropriatsiyasining moddiy belgilovchi omillarini har doim ham ochib bermaydi, shu tariqa ishlab chiqarish va reproduktiv mehnatda ortiqcha qiymat yaratilishi jarayonida paydo bo'ladigan tengsizlikni yashirishi mumkin. Ya'ni boshqacha aytganda, gender rejimlari nazariyasi kapitalizmning ijtimoiy reproduksiyasi orqali shakllanadigan natijalarning og'ishlari va ularning ideal yo'nalishdan farqini tahlil qiladi. Shu bois, ushbu ikki nazariyani uyg'un qo'llash hayotning bozorlashuvi jarayonida ayollar mehnatining ma'nosi butunlay ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka tayanadi va shu tengsizlikka hissa qo'shishini ochib berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agrar bozorlashuv bu jarayonda topshiriqlar va mukofotlar orqali genderga asoslangan ijtimoiy qatlamlanishni yaratadi va boylikning gender bo'yicha keskin polyarizatsiyasini shakllantiradi.

Men patriarxatning ikki shaklini tahlil qilaman: *Maishiy* patriarxat – bu holatda u xonadon va mahalliy jamoada erkaklar hukmronligi, zulmi va kamsitilishiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimini anglatadi [3]; *Ommaviy* patriarxat – bu esa davlatning regulativ va ijtimoiy siyosatlarini orqali, shuningdek bozor vositasida amalga oshiriladigan institusional darajadagi o'zlashtirish, nazorat va ekspropriatsiya shakllarini anglatadi (Brown, 1981). Patriarxal davlat – ommaviy patriarxat tizimini amalga oshiruvchi markaziy agent hisoblanadi. Bu tizim davlatning o'zi bilan cheklanib qolmay, balki bozor, nobozor va nodavlat agentlar hamda institutlar majmuidan iboratdir. “Maishiy va ommaviy gender rejimlarining turli [va kontekstga xos] shakllarini aniqlash global Janubda ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki gender asosidagi chiqaruvchi strategiyalar global Shimolga nisbatan davlat qurilishi, kapitalistik rivojlanish, fuqarolik jamiyati hamda madaniyat va din sohalarida kuchli ta'sir ko'rsatadi” (Kocabicak, 2020:1). Tarixan davlat o'zining “gender-neytal” regulativ qudrati orqali gender tengsizliklari, ekspropriatsiya va kamsitishlarni targ'ib qilib kelgan (Naidu & Osome, 2016; Walby, 1990). Bu esa quyi darajalargacha tarqalgan holda patriarxal mehnat ekspluatatsiyasining oila ichida saqlanib qolishiga xizmat qilgan (Kocabicak, 2020:2). Shuning uchun ijtimoiy reproduksiya ayollarning moddiy ekspluatatsiyasini amalga oshiruvchi maishiy patriarxal doiralarga – oila kabi tuzilmalarga joylashgan bo'lsa-da, uni mezo va makro darajalardagi ko'p qirrali zulm va itoat munosabatlari bilan bog'liq holda ham ko'rib chiqish muhimdir. Bunday o'zaro bog'liqlik vaqt va makonga xos natijalarni keltirib chiqaradi. Elson va Pearson (1981) ta'kidlaganidek, bu jarayon ayollarning mehnati va itoatini turli maishiy va ommaviy patriarxat shakllari orqali parchalaydi, qayta shakllantiradi va kuchaytiradi. Natijada, ayollarning xonadon ichidagi zaif muzokara qudrati hamda ularga oldindan yuklatilgan ijtimoiy rollari sababli, ular bozorda kam haq to'lanadigan, norasmiy va mavsumiy ishlarga jalb etiladi, kamroq kapital aktivlarga ega bo'ladi va ko'proq maishiy mehnat yukini zimmasiga oladi.

Bu genderga asoslangan nomutanosib natijalar qishloq xo'jalik xonadonlarini bir xil manfaatlarga ega, ishlab chiqarish va almashuvda mutanosib bo'lingan mehnat tizimi sifatida emas (Harriss-White, 1990; Razavi, 2009), balki ijtimoiy reproduksiya qanday amalga oshirilishini ochib beruvchi ziddiyatlar va tarangliklar manbai sifatida ko'rsatadi. Masalan, bu jarayon oziq-ovqat ishlab chiqarish va iste'moli orqali namoyon bo'ladi. Agrar bozorlashuv sharoitida oziq-ovqat ishlab chiqarish va reproduksiya munosabatlariga nazar tashlanganda, agrar siyosiy iqtisodchilar uni gender nuqtai nazaridan anglash uchun foydali tahliliy nuqta taklif qiladilar. Bernstein (2010:3) oziq-ovqatni ijtimoiy reproduksiyada ishlatiladigan oila fermerlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida ta'riflaydi. Bu esa bozorlashuv to'liq emasligi sharoitida maishiy mehnatning maqsadi tovar emas, balki to'g'ridan-to'g'ri iste'molga qaratilganligini ko'rsatadi. Maishiy mehnat tovarlashtirilmagan oziq-ovqatni uning foydali qiymati uchun ishlab chiqaradi va

iste'mol qiladi, shu bois u kapitalizmning almashuv qiymatiga asoslangan ekspluatatsiya va ekspropriatsiya mexanizmlari orqali o'tmaydi. Biroq bu "produktivistik" yondashuv uchta muhim nuqtani chetlab o'tadi. Birinchidan, ushbu tovarlashtirilmagan mahsulot va xizmatlarni xonadonning qaysi a'zosi bajarayotgani va qaysi patriarxal institutlar bunga yo'l ochayotgani (yoki majburlayaptgani) ni yashiradi. Ikkinchidan, bunday reproduktiv mehnat faqat foydalanish qiymati bilan cheklanib qolmay, balki qo'shimcha qiymat yaratayotganini ochiq ko'rsatmaydi (Mezzadri, 2019). Bu esa ijtimoiy reproduksiya nazariyasida bozorlashuv jarayonlarida ayollar mehnatining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini anglash uchun asosiy tahliliy nuqta hisoblanadi. Uchinchidan, ayollar mehnati rolini erkaklar va keng jamiyat tomonidan qanday biryoqlama qabul qilinishi va e'tirof etilmasligi e'tibordan chetda qoladi.

Feministik agrar siyosiy iqtisodchilar mazkur tahliliy cheklanishlarni yengib o'tish orqali ijtimoiy reproduksiyaning amaldagi qo'llanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarurligini ta'kidlaydilar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida ayollar asosiy o'rin tutadi, chunki ular asosan oziq-ovqat tayyorlash, bolalar va keksalarga qarash, turarjoyni saqlab turish kabi reproduktiv mehnat bilan shug'ullanadilar (Cousins et al., 2018; Katz, 2001; Razavi, 2009). Shu bilan birga, ayollar uy doirasida bir qator norasmiy va haq to'lanmaydigan, biroq ishlab chiqarish xususiyatiga ega vazifalarni ham bajaradilar. Masalan, kichik hovlidagi bog' va chorvani parvarish qilish, o'tin va suv tashish, mayda savdo va norasmiy savdo bilan shug'ullanish (Naidu & Ossome, 2016; O'Laughlin, 2013). Ayollar mehnati moddiy mahsulotlar (masalan, qishloq xo'jaligi ekinlari) hamda uy doirasidagi nomoddiy xizmatlar orqali nafaqat xonadon uchun, balki kapitalistik tizim uchun ham qiymat yaratadi. Bu qiymat iste'mol jarayonida o'z foydalanish qiymati orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mehnat vaqtini tashkil etgani uchun, ya'ni haq to'lanadigan ish bilan shug'ullanish imkoniyatidan voz kechish orqali ham qiymat yaratadi. Demak, ayollar mehnati qiymatga ega, ammo u bozorlashgan mehnat munosabatlaridan tashqarida amalga oshirilgani uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan qadrlanmaydi.

Agrar bozorlashuv jarayonlari ijtimoiy reproduksiya sohalarini bilan qanday uyg'unlashishini baholar ekan, gender iqtisodchilari ishlab chiqarish va reproduktiv mehnatni asosan tavsifiy usulda (Stevano et al., 2019) tasniflaydilar. Ular haq to'lanmaydigan uy mehnatini qachon, qancha vaqt va kim tomonidan bajarilishini mezon sifatida olib tahlil qiladilar. Bu tushuntiruvchi o'zgarishlar odatda quyidagilardan iborat: ish faoliyatining joyi (uy ichida yoki tashqarisida); kim uchun yoki qanday maqsadda bajarilayotgani (o'z iste'moli uchunmi, sotish uchunmi yoki davlat uchunmi); kim bilan birga bajarilgani (masalan, oila a'zolari bilan birgalikdami); faoliyat turi (haq to'lanadiganmi, haq to'lanmaydiganmi yoki ilovalimi) (Hirway, 1999). Biroq agrar muhitda tirikchilik uchun tovarlashtirilmagan

qishloq mehnati bilan pul uchun bajariladigan mehnat ko'pincha o'zaro bog'liq va bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Bu holat ishlab chiqarish va reproduktiv mehnatning ikkilik tasnifini yanada murakkablashtiradi va ayollar mehnatining jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ma'nosini qayta anglashga chorlaydi.

Haq to'lanmaydigan uy mehnati uning qiymati bozorda narx orqali baholanmagani uchun emas, balki ijtimoiy reproduksiyani qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadigan vaqtning ham ijrochi uchun xarajatsiz emasligi bois ham qiymatsizdek ko'riladi. Bu faoliyatlar tovarlashtirilmagan vaqtning katta sarfini talab qiladi. Shu bois mehnat va gender haqidagi standart empirik tahlillar murakkablashadi va bozor ichida, tashqarisida va ular orasidagi turli mehnat shakllari haqida chuqurroq mulohaza yuritishni talab qiladi. Bu epistemologik kategoriyalar ishlab chiqarish va reproduktiv mehnatning jamiyatda qay darajada e'tirof etilishiga ta'sir qiladi. Shuningdek, qo'shimcha qiymat qanday yaratilishi, ishlatilishi va oila ichida yoki tashqarisida ekspropriatsiya qilinishi masalalarini tushunishni chetlab o'tadi. Shu bois norasmiy mehnat va uy mehnati bozorlashgan va nobozorlashgan mehnat hamda tabiatni subsidiya qilgan sharoitlarda, ayollarning agrar ishlab chiqarishga qo'shgan hissasi ko'pincha yashirin qoladi. Chunki uni bozorlashuv natijalarida hal qiluvchi omil sifatida toifalash va qonuniylashtirish qiyin. Shunday soddalashtirilgan ontologik tasnifni yengish zarur, chunki u kapitalistik to'planish qonuniyatlari va ijtimoiy reproduksiya sohalari o'rtasidagi dixotomiyani kuchaytiradi (Cousins et al., 2018; Mezzadri, 2019). Empirik dalillarga asoslangan tahlil orqali ayollar mehnatini nafaqat oila ijtimoiy reproduksiyasining, balki keng ma'noda kapitalistik ishlab chiqarish usulining ham ajralmas qismi sifatida (va undagi ekspluatatsiya shakllari orqali) e'tirof etish zarur (Mies, 1986; Munro, 2019). Shunga qaramay, agrar bozorlashuv tahlillari haligacha oziq-ovqat va mehnatning tovarlashuv jarayonlari to'planish manbai sifatida qanday o'zaro bog'liq ekani va bu jarayonlar ayollarning haq to'lanmaydigan (tovarlashtirilmagan), ishlab chiqarish, norasmiy va reproduktiv mehnatini qanday qayta shakllantirayotganini ochiq ko'rsatmagan (Razavi, 2009:198). Biroq aynan shu ijtimoiy munosabatlar gender zulmini baholash uchun asosiydir, chunki ular reproduktiv mehnat mas'uliyatlari nomutanosibligini va ijtimoiy reproduksiya qanday patriarxal zulm shakllari orqali saqlanib qolishini yaqqol ko'rsatib beradi.

Mazkur maqola shu darajalarni birlashtirib, ularni ijtimoiy yaxlitlik sifatida tahlil qiladi. Post-Sovet o'tish davri sharoitida ijtimoiy reproduksiyaning qayta shakllanishi yetarlicha o'rganilmagan, shu bois oziq-ovqat uning kundalik agrar o'zgarishlardagi murakkab tabiatini anglash uchun muhim kalit vazifasini bajara oladi. Xususan, O'zbekiston tajribasi reproduktiv va ishlab chiqarish mehnati oziq-ovqat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy reproduksiyaning murakkabligini hamda uning natijalari maishiy va ommaviy patriarxat ta'sirida qanday shakllanishini yoritib beradi.

Metodologiya

O'zbekiston bo'yicha ikkilamchi ma'lumotlar yetarli emasligi sababli birlamchi ma'lumotlarni yig'dim, ham sifat, ham hajm tomondan. Tekshiruv maydonidagi ishlarim 2015 yil avgustdan dekabrgacha Samarqand viloyatida o'tdi, shuningdek 2018 yil kuzida Toshkentda bir qator manfaatdor shaxslar bilan suhbatlarni davom ettirish maqsadida qo'shimcha tadqiqot o'tkazdim. Samarqandda stratifikatsiyalangan namuna asosida fermerlar orasida so'rovnoma o'tkazdim. Stratifikatsiya mezonlari milliy va mintaqaviy statistikada qo'llanilgan tasniflarga hamda 2010 yilda mamlakatda o'tkazilgan oldingi so'rovnomalarga asoslandi. Unda dehqonlar (kichik shaxsiy tomorqalar) va fermerlar (katta xo'jaliklar – paxta, bug'doy yoki meva-sabzavot yetishtiruvchi) yerdan foydalanish shakllari va mehnat munosabatlari asosida ajratilgan edi (Veldwisch & Bock, 2011; Veldwisch & Spoor, 2008). So'rovnoma fermer aholisining barcha mikro-murakkabliklarini qamrab olishni maqsad qilmagan, ammo boshqa usullar bilan uyg'unlashgan holda, gender munosabatlarining bozorlashuv jarayonlaridagi asosiy qonuniyatlarini ochib berishda muhim tasavvur uyg'otdi. 120 nafar ishtirokchidan 16 nafari ayollar edi (1-jadval). Fermerlar rahbarlari orasida ayollar yo'qligi tasodifiy emas: bu toifada erkaklar hukmron, shuning uchun so'ralgan ayollarning ko'pchiligi haq to'lanadigan qishloq xo'jaligi ishchilari yoki uy mehnatchilari (dehqonlar) edi. Shunga qaramay, rahbarlar va ishchilarni qamrab olish tahlilda ular orasidagi moddiy farqlar va ijtimoiy munosabatlarni anglash imkonini berdi. Dastlabki bosqichda men Samarqand viloyatining turli tumanlarini tanlab, paxta, bug'doy va meva-sabzavot yetishtiruvchi fermerlarni aniqladim. Bu mezon turli ekinlarning bozorlashuv jarayonlari bilan bog'liq ishlab chiqarish va reproduksiya munosabatlarini anglash imkoniyatini berdi. Samarqand O'zbekistonda turli bozorlashuv jarayonlari qanday kechayotganini yaxlit ifodalagani uchun tanlandi. Suhbatlar odatda mahalliy hokimiyat idorasidagi ma'murlar yoki fermerlar orqali boshlanib, "snouboll" usuli bilan davom ettirildi.

Jadval 1. So'rovnoma namunasi jins bo'yicha

So'rovnoma namunasi jins bo'yicha	Erkak	Ayol
Paxta va bug'doy fermerlari menejerlari	30	0
Meva-sabzavot va bug'doy fermerlari menejerlari	30	0
Yollama qishloq xo'jalik ishchilari	22	8
Dehqonlar	23	7
Jami	105	15

Ikki mahalliy hisobchi (bir ayol va bir erkak), Samarqand agrar universiteti xodimlari so'rov jarayonida ma'lumot yig'ishda yordam berdilar. So'rovnomalar o'zbek va rus tillarida o'tkazildi. Qishloq hududlarida, ayniqsa kekxa fermerlar orasida rus tili hali ham ko'p qo'llaniladi. Shuning uchun hisobchilarning ishtiroki muhim, ayniqsa yosh fermerlar bilan suhbatda, ular odatda rus tilini bilmaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchi va hisobchilarning ijtimoiy mavqei inobatga olish, ma'lumot to'plash jarayonida gender mutanosibligini saqlash muhim edi (England, 1994). Bir ayol va bir erkak hisobchining ishtirok etishi gender nuqtai nazaridan muhim kuzatishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Masalan, ayol kishi, hisobchi yoki men tomonimdan suhbat o'tkazilganda, ayollar oziq-ovqat xavfsizligi kabi nozik savollarga ochiqroq javob berdilar. Lekin erkak hukmronlik qiladigan muhitlarda, masalan choyxonalarda, erkak hisobchi orqali yaqinlik hissi yaratilib, muloqot ancha oson kechdi. Biroq ma'lumot yig'ish jarayonida tadqiqotchi ayol ishtiroki muayyan muammolarni keltirib chiqardi. Suhbat jarayonida ko'pincha respondentlar ayol hisobchim yoki mendan turmush qurgan-qurmaganligimiz, necha yoshda ekanligimiz, farzandimiz bor-yo'qligi haqida so'rashdi. O'zbekistonda turmush qurganlik ayollarga ijtimoiy qonuniylik beradi, bu esa maishiy patriarxal bosimlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, bu kabi holatlar ayol tadqiqotchi-yordamchi bilan respondentlar orasidagi kuch munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin (England, 1994).

Toshkentda men Samarqandlik katta bir oila bilan yashadim. Bu oila nafaqadagi turmush qurgan juftlik, uning qizidan iborat edi (u yolg'iz ona) va uning kichik o'g'li bor edi. Bu yerda kuzatuvlar o'tkazdim va kundalik daftaringa taom tayyorlash, oziq-ovqat iste'moli va ta'm, ayollar mehnati va uy ichidagi gender munosabatlari haqida qaydlar yozib bordim. Bu ma'lumotlar tahlil uchun asosiy fon vazifasini bajardi. Oila a'zolari avval qishloq xo'jaligi ishchilari bo'lishgan, shuning uchun ular hayotiy tajribalarini o'rtoqlashishdi va ko'pincha Sovet va post-Sovet davrlaridagi farqlar haqida suhbatlashishardi, hatto ba'zan hasrat bilan. Shuningdek, ikkita taomni qayta ishlash korxonasida to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvlar o'tkazdim. Bu kuzatuvlar fabrikadagi mehnatning genderga xos taqsimotini, ayol ishchilarning sharoitlari va ular ixtisoslashgan vazifalarini ochib berishga yordam berdi. Shuningdek, mamlakatdagi siyosatchilar va asosiy manfaatdor shaxslar bilan yarim rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan suhbatlar o'tkazdim [4]. Shuningdek, qishloq hududlaridagi ayollar bilan intervyular o'tkazdim. Bu suhbatlarni rus tilida olib bordim, ular so'rov jarayonida yoki kundalik faoliyat chog'ida – bozorda oziq-ovqat xaridi paytida, avtobusda yoki taksida amalga oshirildi. Empirik dalillarni uyg'unlashtirish orqali intervyu va kuzatuvlardan olingan birlamchi ma'lumotlar bilan so'rovnoma bo'shliqlarini to'ldirdim. Shuningdek, ikkilamchi tarixiy va etnografik manbalar bilan uyg'unlashtirib, mehnat, oziq-ovqat va yer orqali agrar ishlab chiqarish va qiymat yaratishga oid ijtimoiy munosabatlardagi zamonaviy gender tengsizliklarni tahlil qildim.

O'zbekistondagi bozorlashuv jarayonida ayollar

Ushbu bo'limning maqsadi – tarixiy kontekst orqali ayollarning ekspropriatsiya qilinishining o'zgaruvchan dinamikasini yoritish va O'zbekiston agrar jamiyatida ishlab chiqarish, foydalanish va almashinuvdagi gender munosabatlarni zamonaviy tahlil qilishdir. O'zbekiston hukumati bozorga o'tish jarayonini shakllantirish orqali ayollarning ijtimoiy reproduksiyadagi rolini turli jihatlardan doimiy ravishda o'zgartirib kelgan. Sovet Ittifoqi davrida ayollarning rasmiy mehnat bozorlariga kirishi kvota tizimi va ijobiy diskriminatsiya siyosatlari orqali rag'batlantirilgan va hatto majburlangan. Davlatning ta'lim sohasiga katta sarmoya kiritish natijasida aholining 99% savodli bo'lgan (erkaklar 99,6%, ayollar 99,2%), bu esa sovet davrida amalga oshirilgan umumiy ta'limning “progressiv” merosini tasdiqlaydi (Kandiyoti, 2007) [5]. Har bir davlat muassasasi ish o'rinlarining 30%ini ayollar uchun ajratishi kerak edi, shuningdek, ular jamoat va siyosiy hayotda ishtirok etishga rag'batlantirilgan. Bu tizim ayollarning xususiy va jamoat sohasidagi mavqeini Sovetdan oldingi davrga nisbatan keskin o'zgartirdi. Chunki mahalliy ijtimoiy me'yorlar, ayniqsa qishloq hududlarida, ayollarni uydan tashqarida ishlashdan tiyib kelgan edi (ADB, 2014). Biroq Sovet Ittifoqida ayollar “ozodlik paradoksi”ga duch kelgan (Kandiyoti, 2007). Ayollarning rasmiy sektorda ishga jalb etilishi ularning onalik vazifalarini va xonadondagi reproduktiv majburiyatlarini kamaytirmadi. Shu bilan birga, ijtimoiy infratuzilmalar – ham rasmiy, ham norasmiy – ijtimoiy reproduktiv vazifalarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan, masalan sog'liqni saqlash, bolalarga qarash va ta'lim sohasida. Bunday institusionallashgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi ayollarga “muhim ish haqi to'lanadigan va norasmiy bo'lmagan ish o'rinlari manbai”ni (Kandiyoti, 2003:248), shuningdek reproduktiv vazifalarini bajarishda ko'mak berdi.

1991 yilda Sovet Ittifoqi parchalanib, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, “pink kvota” tizimi bekor qilindi va jamoat sektoridagi ko'plab ish o'rinlari yo'qoldi. Bu esa mehnatning norasmiylashuvi va vaqtinchalik tabiati kuchayishiga olib keldi (Kandiyoti, 2003). Natijada, bozorlashuv ko'plab ayollarni rasmiy ishdan, ayniqsa yuqori malakali sohalarida hamda ijtimoiy huquqlardan mahrum etdi. Bu holat islomning konservativ amaliyotlarini qayta tiklanishiga olib keldi (Welter & Smallbone, 2008). Ayollar uchun oila nazoratidan qochish imkoniyatlari qisqarib, gender segregatsiya kuchaydi (Kandiyoti, 2003). Ishlab chiqarish vositalarining tovarlashuvi ijtimoiy reproduksiya xarajatlarining ortishiga va turmush darajasining pasayishiga (ayniqsa, ayollar uchun) sabab bo'ldi. Bozorga o'tish jarayonlari qishloq hududlarida kuchli namoyon bo'lgan “gender normalarining desovetizatsiyasi” bilan uyg'unlashdi (Cleuziou & Direnbergerb, 2016). Yangi mustaqil davlat esa “yo'qolgan an'analarga qaytish” va ayollarning uy ichidagi rolini kuchaytirishni targ'ib qiluvchi gender rivoyatini ishlab chiqdi (Kandiyoti, 2007). Feministik mualliflar bu jarayonni “ayollarni qurbonga aylantirish” (Buckley, 1997) deb

baholagan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2007-2015 yillarda ayollarning rahbarlik lavozimlarida hamda erkaklar hukmron sohalarda (energetika va avtomobilsozlik kabi) ishtiroki pasaydi. Biroq salomatlik va ta'lim kabi ayollar an'anaviy ustunlik qilgan sohalarda ularning ishtiroki barqaror bo'lib qoldi (muvofig ravishda 82% va 72% - Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari) [6]. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining izdan chiqishi ijtimoiy-iqtisodiy ekspropriatsiyani keltirib chiqardi va ayollarning uydan tashqarida ishlash imkoniyatlarini chekladi (Romanova et al., 2017). Sovet davlati tomonidan bolalarga qarash, sog'liqni saqlash yoki oilaga yordam uchun berilgan moliyaviy ko'mak yo'qoldi yoki eng minimal darajaga tushirildi (Cleuziou & Direnberger, 2016:198). Shu bois, Sovet Ittifoqi qulaganidan so'ng ijtimoiy farovonlik va davlat xizmatlari qisqarishi uy mehnatida ayollarga qarshi qaratilgan gender normalarini kuchaytirdi. Bu sharoitda davlatning bozor va jamoat sohasidagi aralashuvi ham ayollar va erkaklarning qishloq xo'jaligidagi resurs va aktivlarga turlicha kirish imkoniyatlarini shakllantirdi. Sovet tizimining parchalanishi natijasida ijtimoiy xizmatlarning tovarlashuvi va ishlab chiqarish munosabatlarining individuallashuvi ayollarning ishlab chiqarish va reproduktiv mehnatini ikki yo'nalishda qadrsizlantirdi: ijtimoiy reproduksiya uchun mehnatning "norasmiylashuvi" orqali. Ya'ni davlat tomonidan to'langan va formallashtirilgan xizmatlar (masalan, sog'liqni saqlash yoki bolalarga qarash) endi haq to'lanmaydigan va uy doirasiga yuklangan mehnatga aylandi; shu mehnatning ijtimoiy qonuniyligini yo'qotishi orqali. Endi u ayollarning uy ishlari majburiyati sifatida qabul qilindi. Shu tariqa, davlatning xonadon, mahalliy bozor va jamoat sohasidagi ishtirok shakllarining o'zgarishi ijtimoiy reproduksiya strategiyasini (Kunz, 2010) almashtirib, ayollarni uyda, jamiyatda va iqtisodda hokimiyatdan mahrum qilishga hissa qo'shdi.

Qishloq hududlarida Sovet Ittifoqi parchalanishi ijtimoiy reproduksiyani yer va oziq-ovqatning ishlab chiqarilishi va unga kirish usullari orqali qayta shakllantirdi. Bunday mexanizmlarni anglash uchun O'zbekiston agrar bozorlashuvini Sovet davridagi qishloq xo'jaligi asoslangan yakka-ekin (mono-kultura) yetishtirish tarixi doirasida joylashtirish muhimdir. Sovet Ittifoqi davrida tirikchilik dehqonchiligidan tashqari, yer asosan jamoa va davlat xo'jaliklari orqali paxta yetishtirishga yo'naltirilgan edi (Atta, 1993). Bu holat faqat 2000-yillarning boshlarida bug'doy, meva va sabzavotlarning integratsiyasi bilan diversifikatsiya qilindi (Lombardozi & Djanibekov, 2021; Lombardozi, 2020b). Davlat tomonidan mehnat jamoat xaridlari orqali tashkil etilgan ishchilar moddiy kompensatsiya olgan, shu bilan birga jamoat ne'matlariga kirish imkoniyati orqali shakllangan paternalistik himoya mexanizmining g'ayri rasmiy ko'rinishidan ham foydalangan (Kandiyoti, 2003).

Yer va oziq-ovqat ishlab chiqarishga oid asosiy islohotlarni hujjatlashtiruvchi tadqiqotlarning ko'pchiligi gender-neytral bo'lib, ayollarni "dehqonlar" degan umumiy toifaga kiritgan va shu tariqa patriarxal ekspluatatsiyaning ommaviy va

maishiy shakllarini yashirgan. Biroq ayrim tadqiqotlar ko'rsatganidek, ayollar agrar ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil qilishda va ijtimoiy reproduksiyani ta'minlashda muhim o'rin tutgan (Kandiyoti, 2003). Chindan ham qishloq xo'jaligi aniq genderga asoslangan mehnat taqsimoti asosida tashkil etilgan edi. Qishloq hududlarida iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning ko'p qismi asosan ayollar tomonidan uy tomorqalarida yetishtirilgan, ammo bu jamoa xo'jaliklari bilan bog'liq holda amalga oshgan. Mustaqillik paytida bunday tizim aholining oziq-ovqat ehtiyojlarining taxminan 40%ini ta'minlagan hamda kichik savdoga imkoniyat yaratgan (Atta, 1993; Kandiyoti, 2003; Veldwisch & Spoor, 2008).


1991 yildan keyingi mustaqillikdan so'ng agrar bozorlashuvning sust jarayoni oziq-ovqat ishlab chiqarish va iste'moli atrofidagi ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirdi, shu bilan birga ayollarning uy ichida va tashqarisidagi mehnat shakllariga ham ta'sir qildi. Bu jarayonlar ko'p qirrali ommaviy va maishiy patriarxat kuchlari bilan shakllantirildi. Masalan, qishloq infratuzilmasiga davlat sarmoyasining qisqarishi ayollar uchun ish o'rinlarining kamayishigagina emas, balki ijtimoiy reproduksiya yukining ortishiga ham olib keldi. Bu esa suv olib kelish va uy uchun yoqilg'i topishga ko'proq vaqt sarflanishi bilan namoyon bo'ldi (Romanova et al., 2017). Fizik infratuzilmalarning eskirishi va reproduktiv mehnatni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy siyosatning pasayishi ayollar qiynalishini yanada kuchaytirdi. Bundan tashqari, kolxozlar (davlat xo'jaliklari) va shirkatlar (kooperativlar)ning tarqatilishi natijasida yerga bo'lgan individual mulk huquqlarining joriy etilishi ish haqi to'lanadigan ish o'rinlari yoki tadbirkorlik imkoniyatlarining ko'payishiga olib kelmadi. Shu sababli, davlat sektoridagi ish va xizmatlar yo'qolgan bir sharoitda yer va o'z tomorqasida yetishtirilgan oziq-ovqat asosiy tayanchga aylandi (Kandiyoti, 2003).

O'zbekiston agrar o'zgarishlariga zamonaviy va empirik tahlil berish orqali keyingi qismlar patriarxal ekspluatatsiya va zulm shakllari bozorlashuv jarayonlariga hanuz ta'sir qilayotganini, natijada ijtimoiy reproduksiyada genderga xos ziddiyatlarni kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish va reproduksiyaga e'tibor qaratish esa O'zbekiston agrar kontekstida ayollar mehnati qanday ekspluatatsiya qilinayotganini va bozorlashuv natijasida qanday qayta shakllanayotganini ochishda muhim nazariy linza vazifasini bajaradi. Nobozor ijtimoiy munosabatlar – uy mehnati va norasmiy mehnat, shuningdek barter almashuvlari va jamoaviy marosimlarda – qishloq hududlarida hanuz saqlanib qolmoqda va post-sovet kapitalistik o'tish jarayonlarida ko'pincha yanada kuchayib, yangi ma'nolar kasb etmoqda. Maqolada ta'kidlanganidek, ayollarning qiymat yaratishga qo'shgan hissasi ochiq tan olinmagan, biroq u kapital to'planishi va ijtimoiy reproduksiya jarayonlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega (Munro, 2019). Bu esa shu vaqtgacha muhokama qilinganidek, ijtimoiy reproduksiyaga bosim o'tkazgan ommaviy (patriarxal) institutlarning tarixiy rivojlanishini ham anglash

orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, oziq-ovqat qayta ishlash sektorida ekinlarni diversifikatsiya qilish va sanoatlashuvning paydo bo'lishi yangi, ammo tarqoq ko'rinishdagi haq to'lanadigan mehnat shakllarini keltirib chiqarmoqda (Lombardozi, 2020a). Bu esa ayollarning ish joyida ham, uy ichida ham ekspluatatsiya qilinishini davom ettirmoqda. Keyingi qismda men bozorlashuv jarayonlari va maishiy hamda ommaviy patriarxat rejimlari birgalikda ayollarning zulmini qanday qayta ishlab chiqishi va gender asimmetriyalari orqali (oziq-ovqat ta'minotida, ayollar mehnatini va maoshini qadrsizlantiruvchi ijtimoiy normalarda, reproduktiv mehnatning tengsiz taqsimlanishida), shuningdek davlat siyosatidan sarmoyaning qaytarilishi orqali ijtimoiy reproduksiya natijalarining qanday shakllanganini tadqiq qilaman.


Zamonaviy O'zbekistonda oila ichidagi munosabatlar va mehnatning gender taqsimoti

Oziq-ovqat jarayonini ijtimoiy qayta ishlab chiqarish nazariyasi va patriarxal jinsiy rejimlar asosida tahlil qilish orqali ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish mehnati o'rtasidagi, shuningdek ular ichidagi jinsiy ziddiyatni ochish mumkin. Biroq, uy ichidagi patriarxatning muhim o'lovlaridan biri oziq-ovqatga bo'lgan kirish imkoniyati orqali namoyon bo'ladi. Noto'g'ri va kam ovqatlanish ayol-qizlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda uy ichida erkaklar va ayollarning hokimiyat darajalaridagi muhim farqlarni izohlaydi. Erkaklar va ayollar orasida ovqat iste'molidagi kamsitishni o'rganish uchun namuna soni erkaklar va ayollar o'rtasida mutanosib bo'lmasa-da, 1-rasmda (chapdan o'ngga qarab turli ozuqaviy mahsulotlar soni ko'payib borishi ko'rsatilgan) ayollar nisbatan erkaklarga qaraganda kam turdagi ovqat turlarini iste'mol qilishi ma'lum bo'ldi.



Bu natija bir nechta sabablar bilan izohlanadi: avvalo, ovqatlanish paytidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, erkaklar sifat va miqdor jihatidan eng yaxshi taomlarni olishga moyil. Ikkinchidan, hatto ayollar xo'jalikdan tashqari ishlarda ishtirok etgan taqdirda ham, oila byudjeti ko'pincha erkaklar tomonidan boshqariladi. Mablag'larning jinsiy belgilar asosida taqsimlanishi qayerdan va qancha ovqat olinishini hamda uning uy ichida qanday tarqatilishini belgilab beradi. Bu esa oziqlanish va sog'liqda jinsiy asimmetriyalarga olib keladi (Agarwal, 2016). Biroq ovqatlanishdagi tengsizlik faqat uy ichidagi shaxsiy kelishuvlar natijasi emas. Ayollarga nisbatan cheklovlar jamoatchilikdagi patriarxal me'yorlar bilan ham bog'liq bo'lib, ular erkaklar hukmronligidagi qarindoshlik va jamoa munosabatlariga katta kuch va qonuniylik beradi. Kochabichak ta'kidlaganidek, patriarxal jamoaviy sub'yekt siyosiy yo'sinda shakllangan mulk munosabatlarini ayollarning haq-huquqdan mahrum etilishi va oila {va davlat} ichida mehnatning patriarxal ekspluatatsiyasini qo'llab-quvvatlaydigan tarzda shakllantiradi (2020:3). Masalan, maydon tadqiqotlari asosida kuzatilganidek, erkaklar ko'pincha uydan tashqarida, chayxonada ovqatlanishadi va bu ularga turli xil taomlardan kengroq foydalanish imkonini beradi (Farfan va boshq., 2015). Taom turlaridagi bunday farq shuningdek, ayollarning jamoat makonlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq. Bu cheklov uy ichidagi o'zbek patriarxal tizimi tomonidan o'rnatilgan va davlatning institusional tartiblari orqali ayollarning harakatini nazorat qilish bilan yanada mustahkamlangan [7]. Biroq oziq-ovqatdan noteng foydalanish imkoniyatiga qarshilik shakllari ham kuzatildi. Masalan, oshxonada ovqat tayyorlash jarayonida ayrim masalliqnlarni pishirish paytida ulardan yeyish holatlari qayd etildi. Bu shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy qayta ishlab chiqarish yuki asosan ayollar zimmasiga tushadi va u turli xil tengsizliklar orqali namoyon bo'ladi. Biroq bu tengsizliklarga ayollar har kuni turli yo'llar bilan qarshi kurashishda davom etmoqdalar.


So'rovnoma savollaridan biri, bozorga oziq-ovqat sotib olish uchun kim boradi, degan masalaga taalluqli edi (2-rasm). Oziq-ovqat xaridi reproduktiv mehnatning bir qismi bo'lishiga qaramay, so'rov natijalari va kuzatuvlar oldingi tadqiqotlarni (Trevisani, 2008) tasdiqladi: O'zbekistonda bozordan oziq-ovqat sotib olish asosan erkaklarning vazifasi hisoblanadi (buni turmush o'rtoq, o'g'il, ota va h.k. bajaradi).



Bunga bir necha sabablar bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilganidek, qishloq hududlarida ayollarning jamoat maydonlariga chiqishi ko'pincha cheklangan, chunki infratuzilma va jamoat xizmatlari yetishmasligi sababli jamoat transporti kam, ayollarning aksariyati esa mashinaga egalik qilmaydi va haydamaydi. Bu esa qishloqda yashovchi ayollar uchun davlatning infratuzilma va jamoat transportiga sarmoya kiritmasligi ayniqsa, kamsituvchi ekanini ko'rsatadi. Chunki harakatlanish imkoniyatini cheklash orqali ayollarning erkin harakatlanishi erkaklar tomonidan boshqariladi. Bu holat ommaviy va xususiy patriarxat dinamikalari bir-birini qanday mustahkamlab turayotganini ko'rsatadi. Chindan ham, hatto ayollar bozorga hosillarini sotish uchun borganda ham, ko'pincha ularni mashinalarda o'g'il farzandlari yoki katta yoshli erkak qarindoshlari olib borishadi. Bu esa xonadondagi genderni asoslangan makon nazoratining jamoat sohasiga ham ko'chib o'tishini anglatadi. Ikkinchidan, ayollarning shaxsiy harakatlanishini nazorat qilishdan tashqari, erkaklar ko'pincha uy xo'jaligida pul aylanishi va byudjet taqsimotini ham nazorat qiladi. Erkaklar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, ular uchun bozorga borib oziq-ovqat sotib olish ayollar bilan pulni bo'lishmaslikning bir usuli hisoblanadi. Shu ma'noda bozorlashuv (ya'ni oziq-ovqatning tovarlashuvi) pul va oziq-ovqatga kirishdagi gender tafovutni kuchaytirib, ommaviy va xususiy patriarxat kuchlari bilan uyg'unlashib, ijtimoiy reproduksiya natijalarini salbiy shakllantirgan.

Biroq erkaklarning bozorda oziq-ovqat xaridi bilan shug'ullanishi uydagi vazifalar yuki erkaklar va ayollar orasida teng taqsimlanganini anglatmaydi. Ayollar mehnati erkaklarning rasmiy mehnat bozorida ishtirokini ta'minlab berish, uy aktivlarini boshqarish va parvarish vazifalarini bajarish orqali xonadon va jamiyatning ijtimoiy reproduksiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oziq-ovqat tayyorlash vaqt talab qiladi va bu vaqtga haq to'lanmaydi, qadrlanmaydi va erkaklar zimmasiga

tushmaydi. Aslida, palov tayyorlashdan tashqari (u odatda marosimlarda erkaklar tomonidan bajariladigan an'anaviy faoliyat) so'rov natijalari va sifat jihatdan olib borilgan kuzatuvlar oziq-ovqat tayyorlash asosan ayollar mas'uliyatida ekanini ko'rsatdi. U asosan xotinlar (80%), kelinlar (taxminan 10%) va kam hollarda qizlar tomonidan bajariladi. Erkaklar va ayollar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ham ko'rsatdiki, hayotning bozorlashuvi katta yoshli ayollarni tobora ko'proq haq to'lanadigan mehnatga – qishloq xo'jaligida ham, undan tashqari ham – jalb qilmoqda. Natijada, ko'pincha uyda zarur bo'lgan reproduktiv mehnat kichik yoshdagi ayollar zimmasiga yuklanadi. Shunday qilib, ijtimoiy reproduksiya uchun zarur bo'lgan uy mehnati baribir gender chizig'ida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yosh ayollar uydagi ijtimoiy reproduksiya bilan shug'ullanishsa, buvilar kelinlar ustidan avlodlararo qudratni saqlab qoladilar (Kandiyoti, 1998). Yaqinda turmush qurgan ayrim ayollar intervyu paytida qaynonalari ularga og'ir uy vazifalari, hatto homiladorlik paytida ham yuklashini aytdilar. Bu uy ichida va tashqarisida ayollar ekspluatatsiyasining murakkabligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, gender asosidagi tengsiz mehnat taqsimotiga asoslangan patriarxal zulm nafaqat avloddan-avlodga uzatilayotganini, balki ba'zan ayollar o'zlari tomonidan ham ichkilashtirilib, amalga oshirilayotganini ham ko'rsatadi.



Qayta ishlab chiqarish mehnati faqat qisqa muddatli ijtimoiy ehtiyojlarni emas, balki uzoq muddatli ehtiyojlarni ham ta'minlaydi. Maydon tadqiqotlari jarayonida kuzatildiki, qish mavsumida, uzoq qishloq hududlarida meva-sabzavotlarning mavjud emasligi uchun ayollar mevalardan sharbat (kompot) va sabzavotlardan marinad (pomidor, sabzi va bodiring) tayyorlab qo'yishadi. Bunday ozuqa saqlash amaliyoti muhim ahamiyatga ega, chunki u bozorlashuv, patriarxat va ijtimoiy qayta ishlab chiqarish natijalari o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ochib beradi. Birinchidan, taom zaxirasini tayyorlash mavsumiy ovqat yetishmovchiligi bilan

bog'liq ehtimoliy zarbalarni yumshatib, shu bilan birga probiotiklarga boy bo'lganligi sababli, uy xo'jaligining oziqlanish darajasiga va ijtimoiy barqarorligiga ijobiy hissa qo'shadi. Ikkinchidan, vaqt talab qiladigan va haq to'lanmaydigan uy mehnati bozordan tashqarida qiymat yaratadi, ammo u bozordagi talab va taklifga ham ta'sir qiladi. Xususan, haq to'lanadigan mehnatga bo'lgan talabning yo'qligi ayollarni uy ishlariga majbur etadi, ular esa norasmiy, biroq qiymat yaratadigan tirikchilik strategiyalari bilan shug'ullanishadi. Uchinchidan, O'zbekistonda oziq-ovqat tizimining sekin-asta liberallashtirishi ovqat ta'minotida «orqada qolish» holatini keltirib chiqaradi. Bu esa qishda, ayniqsa, vaqt talab qiladigan taomlarni tayyorlashni oson qiladi. Shu tariqa, ayollarning qayta ishlab chiqarish mehnati [8] va unga bog'liq qiymat yaratilishi ijtimoiy qayta ishlab chiqarishda ikki tomonlama hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bozorda ish haqi va tovarlarning yetishmasligi (xarid qobiliyati pastligi sababli)ni qoplash orqali bunday qiymat ovqatni tovar sifatida inflyasiyaga uchratadi, mehnat haqini esa deflyasiyaga olib keladi. Ya'ni, ayollarning haqsiz mehnatining mavjudligi va davom etishi bir tarafdin ovqat tovarlariga bo'lgan talabni kuchaytirmaydi va ijtimoiy qayta ishlab chiqarishning bozorlashuvini sekinlashtiradi, boshqa tarafdin esa ish haqi bilan mehnatni subsidiya qiladi. Xo'jalikda kir yuvish mashinalari, idish yuvish mashinalari va tikish mashinalari kabi mehnat tejovchi qurilmalarning yo'qligi ham bu holatni yanada mustahkamlaydi. Shuning uchun davlat tomonidan nazorat qilinadigan bozorlashuv (Lombardozi, 2020a, 2020b), uy va jamoat patriarxati orqali kelishilgan holda, ayollarning bozor bilan va uning pul va mehnat shakllari bilan qanday aloqada bo'lishini belgilaydi.

